

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TIL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Olimjonova Mubinaxon Anvarjon qizi
O`zDJTU Sharq FARAB 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, til kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rnini va mavjud cheklovlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida talabalarning mustaqil ta'lim olish jarayonida SI vositalarining afzalliklari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan metodik kamchiliklar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, til kompetensiyasi, raqamli ta'lim, chatbotlar, lingvistik tahlil.

Аннотация. В данной статье анализируется значение использования технологий искусственного интеллекта в современной лингвистике, его роль в развитии языковой компетенции и существующие ограничения. В ходе исследования освещаются преимущества инструментов ИИ в процессе самостоятельного обучения студентов.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, языковая компетенция, цифровое образование, чат-боты.

Abstract: This article analyzes the significance of using artificial intelligence technologies in modern linguistics, its role in developing language competence, and existing limitations. The study highlights the advantages of AI tools in the process of students' independent learning.

Keywords: Artificial intelligence, language competence, digital education, chatbots.

Kirish. Bugungi kunda jahon ta'lim tizimi shiddat bilan raqamlashmoqda. Ayniqsa, filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun chet tillarini egallashda faqatgina an'anaviy darsliklar kifoya qilmayapti. 21-asr — axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt asridir. Sun'iy intellekt nafaqat kundalik hayotimizga, balki til o'rganish metodikasiga ham inqilobiy o'zgarishlar olib kirdi. Til kompetensiyasi, ya'ni tilni ham nazariy, ham amaliy jihatdan mukammal bilish darajasiga yetishishda sun'iy intellekt vositalarining o'rnini beqiyosdir.

Sun'iy intellekt til o'rganishda shunchaki yordamchi vosita emas, balki shaxsiy repetitor va tahlilchi vazifasini ham o'tay boshladi. Biz ushbu jarayonni chuqurroq anglash uchun xalqaro va mahalliy adabiyotlarga murojaat qilamiz.

Tahlil va muhokama. UNESCO tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ta'limda texnologiyaning o'rnini alohida ta'kidlanadi. Jumladan: "Sun'iy intellekt o'qituvchi o'rnini bosa olmaydi, biroq sun'iy intellektdan foydalana oladigan o'qituvchi va talabalar, undan foydalana olmaydiganlarni ortda qoldiradi." — (UNESCO, 2023)

Ushbu iqtibosni quyidagi hayotiy o'xshatish (analogiya) orqali yanada aniqroq ifodalash mumkin. Sun'iy intellektni insonning harakatini tezlashtiruvchi transport vositasiga qiyoslash joiz. Piyoda harakatlanayotgan shaxs va avtomobil boshqarayotgan haydovchi misolida ko'radigan bo'lsak, texnika insonning o'rnini bosmaydi, balki uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Xuddi shuningdek, sun'iy intellekt ham talabaning o'rnini egallamaydi, biroq undan foydalana oladigan talaba boshqalarga qaraganda tezroq va samaraliroq harakatlanadi. Bunda avtomobil (texnologiya) insonning o'rnini bosuvchi

kuch emas, balki uning maqsadiga tezroq yetishini ta'minlovchi samarali vosita sifatida namoyon bo'layapti.

Demak, bo'lajak mutaxassislar uchun sun'iy intellekt bilan ishlash ko'nikmasi endi tanlov emas, balki zaruriyatdir. Masalan, men o'z amaliyotimda murakkab matnlarni tarjima qilish yoki ularning grammatik strukturasi tahlil qilishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanganimda, qidirayotgan ma'lumotimni an'anaviy usulga qaraganda vaqt sarfini keskin kamaytirishga va metodik samaradorlikni oshirishga erishdim.

Tilning madaniy va hissiy jihatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, til faqatgina grammatik qoidalar va so'zlar yig'indisi emas. Taniqli olim Yuval Noy Xarari bu borada shunday yozadi: "Til — bu shunchaki ma'lumot uzatish vositasi emas, u madaniyat va hissiyot ko'prigidir. Mashina har qancha mukammal tarjima qilmasin, u so'z zamiridagi insoniy hisni tushunmaydi" (Xarari, 2018).

Binobarin, sun'iy intellekt matni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirishi mumkin, lekin tilning "ruhini" — pinhona ma'nolarni, madaniy nozikliklarni va milliy mentalitetga xos bo'lgan frazeologizmlarni har doim ham to'laqonli yetkazib bera olmaydi. Ayniqsa, arab tili kabi boy va qadimiy tillarni o'rganishda sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan tarjima ba'zan "quruq" va mexanik bo'lib qolishi mumkin. Bu esa til kompetensiyasini rivojlantirishda inson omili hamon birinchi o'rinda ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonlik olim A.A. Azizov o'zining tadqiqotlarida til o'qitishning texnologik asoslari haqida shunday ta'kidlaydi: "Zamonaviy tilshunoslikda axborot texnologiyalari talabani mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirishda boshqaruvchi rolini o'ynaydi" (Azizov, 2022).

Ushbu fikrga asoslangan holda ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt talabaga akademik mustaqillik beradi. Ya'ni, talaba pedagog yordamisiz ham o'z talaffuzini sun'iy intellekt vositalari yordamida korreksiya qilishi yoki lug'at boyligini mustaqil ravishda sinovdan o'tkazishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Zamonaviy sharoitda bo'lajak filolog-mutaxassislar uchun sun'iy intellekt bilan ishlash ko'nikmasini egallash akademik mustaqillikka erishishning asosiy omilidir. Bu nafaqat talabani mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantiradi, balki uni mehnat bozorida raqobatbardosh kadrqa aylantiradi. Sun'iy intellekt imkoniyatlari va insoniy tafakkur uyg'unligi til o'rganish samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Kelajak ta'limi texnologiyalarni inkor etishda emas, balki ulardan oqilona va kreativ foydalanishda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizov A.A. Til o'qitish metodikasida zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent, 2022.
2. Harari Y.N. 21 Lessons for the 21st Century. – Spiegel & Grau, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6198-son Farmoni.
4. Oxford University Press. Digital transformation in English Language Teaching. – Oxford, 2023.
5. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. – Paris, 2023.